

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA O‘YIN FAOLIYATINING AHAMIYATI

Davirova Xulkarxon Berdibekovna

Guliston davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yin faoliyatining ahamiyati yoritilgan. O‘yining foydali xususiyatlari haqida so‘z borgan. O‘yin orqali tarbiya va ta’limni to‘g‘ri berish mumkinligi aytilgan. Ota-onalar va tarbiyachi-pedagoglarga bu borada tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘yin, tanishtiruvchi o‘yin, ro‘lli o‘yin, ijodiy o‘yin.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yin bolalar hayotining kun tartibiga doimiy qilib kiritilgan. O‘yinlar uchun nonushtagacha va undan keyin, mashg‘ulotlardan so‘ng, sayrlardan so‘ng, bolalar uylariga ketishidan oldin vaqt ajratiladi.

Masaru Ibukaning ta’kidlashicha: “O‘yinlar bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishini rag‘batlantiradi, o‘yinlarda uning shaxsiyati shakllanadi. Bu jarayonga ota-onaning munosabati o‘yinchoqlar asosiy vazifasini yo‘qotishi yoki , aksincha, kichkintoyning rivojlanishiga kuchli turtki bo‘lishini belgilab beradi. Shuning uchun onalar o‘z farzandlarining o‘yinlariga e’tiborliroq bo‘lishlari kerak.

Ota-onalar o‘z farzandlarining o‘yinlariga e’tiborli bo‘lishlari kerak deganimda ular bolaning hayotida o‘yinlarning ahamiyatini tushunishlari va o‘yinlar yordamida mustaqil rivojlanishiga yordam berishlarini nazarda tutmoqdaman”.

O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi. Bunda o‘yin, mehnat va ta’lim bilan uzviy aloqada bo‘lgan holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi. Bola shug‘ullanadigan asosiy ishlar o‘yin shaklida bo‘ladi. O‘yin bola faoliyati uchun kerakli jarayondir, sababi o‘yinda bola harakat qiladi, o‘ylaydi, gapiradi, idrok etadi.

Ilk yoshdagi bolalar o‘yin faoliyatining birinchi bosqichi tanishtiruvchi o‘yin bo‘lib, u narsa- buyum o‘yin faoliyatidir. Uning mazmuni qo‘l ishidagi murakkab va nozik harakatlardir.

Keyingi bosqich aks ettirish o‘yini hisoblanadi. Bu ilk yoshli bolalar o‘yini psixologik mazmuning rivojlanishida eng yuqori nuqta hisoblanadi.

Birinchi yoshning ohiri va ikkinchi yoshdagi bolalar o‘yinida syujetni aks ettirish yuzaga keladi. Bola qo‘lidagi buyum bilan undan qanday foydalanish kerakligini aks ettiradi.

Navbatdagi bosqich ro‘lli o‘yin bo‘lib, unda bolalar o‘zlariga tanish bo‘lgan kattalar mehnati va kishilarning ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradilar.

Bolalar o‘yin faoliyatining bosqichma- bosqich rivojlanishi to‘g‘risidagi ilmiy tasavvurlar har xil yosh guruhlarida bolalarning o‘yin faoliyatiga rahbarlikning aniq sistemasi tavsiyalarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yin faoliyatining o‘rni juda katta bo‘lib, o‘yindan maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berishda keng foydalaniladi. Zero:

- ✓ O‘yin bolalarning mustaqil faoliyati bo‘lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo‘ladi;
- ✓ O‘yin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir;
- ✓ O‘yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;
- ✓ O‘yin bolalarga ta’lim va tarbiya berishning metod va usulidir;
- ✓ O‘yin bolalar o‘quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir.

O‘yinda bola organizmiga xos bo‘lgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi, hayotiy faollik ortadi, berdamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. Shuning uchun ham bolalarni jismoniy tarbiyalash sistemasida o‘yin munosib o‘rin egallaydi.

O‘yin ta’lim va mashg‘ulotlar hamda kundalik hayotdagi kuzatishlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib juda katta ta’lim- tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ijodiy o‘yinlarda muhim bilim egallash jarayoni yuzaga keladi, bu bolaning aqliy kuchini ishga solidi,

tafakkurini , hayolini, diqqatini, xotirani faollashtirishni talab qiladi, bola masalalarni mustaqil hal qilishga o‘rganadi, o‘ylagan narsasini amalga oshirish uchun yaxshiroq va osonroq usul o‘ylab topadi, o‘z bilimlaridan foydalanish va uni so‘z bilan ifodalashga o‘rganadi.

Bolalar aql- idrokini o‘yin va musiqa orqali tabiiy ravishda o‘stirib boramiz. Biz, ota- onalar, bunga qo‘ldan kelgancha yordam berishimiz kerak. Bizning bu harakatlarimiz farzandlarimizning kelajagiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, o‘yin orqali bolaga tarbiyaning barcha turlarini o‘rgatish mumkin. Bolalar hayotni o‘yinlar orqali o‘rgansa yaxshi samara beradi. Mashg‘ulotda egallangan bilim va ko‘nikmalar o‘yin orqali rivojlantiriladi hamda mustahkamlanadi. Bolalarning o‘zlari ijodiy o‘yinlar o‘ylab topishsa ham foydalidir.

Ijodiy o‘yinlar – bolalarning mustaqil o‘yini bo‘lib, o‘yin mazmunini bolalarning o‘zlari o‘ylab topadilar.

Barcha o‘yinlar ham bolalar uchun foydali bo‘lmay, ularga zarar ham yetkazishi mumkin. Shuning uchun biz tarbiyachi- pedagoglar o‘yin tanlashda e’tiborli bo‘lib, mashg‘ulot yoki shu kabi jarayonlar uchun kerakli o‘yinlardan foydalana olishimiz kerak. Ko‘pchilik ota- onalar farzandining dangasaligidan nolishadi, dangasalikni ham o‘yin orqali yo‘q qilish mumkin. Qanday deysizmi? Farzandingizni biror ishni qilishini istasangiz unga buni buyruq ohangida emas, balki o‘yin tarzida ayting, shunda bola o‘yin o‘ynayapman deb, o‘zi bilmagan holatda mehnat qiladi, bu orqali unda mehnatsevarlik ham rivojlanadi. O‘yinlar orqali tarbiyachilar bolalarda juda ko‘p yaxshi sifatlarni rivojlantirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

4. Masaru Ibuka “Uchdan keyin kech” Toshkent. “Akademnashr”2021.
5. Masaru Ibuka “Uchgacha ayni vaqt” Toshkent. “Akademnashr”2021.
6. Nargiza Qayumova “Maktabgacha pedagogika”o‘quv qo‘llanma. Toshkent-2013.
7. <https://fayllar.org>